

2034-yilga kelib polipropilen ishlab chiqarish uchun katalizatorlar bozori hajmi 5,15 milliard dollargacha o'sishi mumkin

// 03.09.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilga-kelib-polipropilen-ishlab-chiqarish-uchun-kataliz>

Jahon kimyo sanoati xabarлари

2034-yilga kelib polipropilen ishlab chiqarish uchun katalizatorlar bozori hajmi 5,15 mlrd dollargacha o'sishi mumkin



uzkimyosanoat.uz



@uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



uzkimyosanoat



@uzkimyosanoat

2024-yilda polipropilen ishlab chiqarish uchun katalizatorlarning jahon bozori hajmi 2,29 milliard dollarni tashkil etdi, 2025-yilda esa 2,48 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. Precedence Researchning avgust oyidagi hisobotiga ko'ra, 2034-yilga kelib bozor hajmi 5,15 milliard dollargacha yetishi mumkin, bu yillik o'rtacha 8,45% o'sish sur'atida ro'y beradi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (OTOM) bozorining 45% ulushini egallagan holda jahon bozorida ustunlik qiladi. 2024-yilda bu miqdor pul ko'rsatkida 1,03 milliard dollarni tashkil etgan. Prognozlarga ko'ra, 2034-yilga kelib bu hajm 2,34 milliard dollargacha yetadi. Yirik ishlab chiqarish quvvatlari, rivojlangan neft-kimyo infratuzilmasi va iste'mol o'sishi ushbu mintaqaning yetakchi mavqega ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Shimoliy Amerika eng tez rivojlanayotgan mintaqasi sifatida ajralib turadi, bu holatga texnologik innovatsiyalar, ilg'or tadqiqot va ishlanmalar, hamda barqaror rivojlanish sari o'sib borayotgan tendensiya hissa qo'shmoqda.

Hozirda mintaqasi jahon bozorining 27% ni tashkil etadi. Yevropaga 23% to'g'ri kelsa, Lotin Amerikasi, Yaqin

Sharq va Afrika mintaqasiga 5% to'g'ri keladi. Prognoz qilinayotgan davr oralig'ida Shimoliy Amerika eng yuqori o'sish sur'atini namoyon qilishi kutilmoqda.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, katalizator turlari orasida Sigler-Natta katalizatorlari 2024-yilda eng katta ulush – 60% ni tashkil etgan. Biroq, eng tez o'sish metallotsen katalizatorlaridan kutilmoqda.

Yakungi foydalanish sohalari bo'yicha esa 2024-yilda bozorning asosiy qismini – 65% ni qadoqlash segmenti ta'minlagan.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati